Аннотация: В статье комплексно анализируются понятие адаптивных технологий, их теоретико-методологические основы и особенности применения в современной системе образования. Рассматриваются этапы становления и развития адаптивных обучающих систем, а также вопросы их интеграции в образовательный процесс. Проанализирован опыт внедрения адаптивных технологий и научно обосновано их влияние на эффективность обучения. Освещаются технические, педагогические и социальные проблемы, возникающие при внедрении адаптивных технологий, а также пути их решения.

Ключевые слова: адаптивные технологии, система образования, искусственный интеллект, learning analytics, big data, Coursera, Khan Academy, edX, индивидуальное обучение, цифровое образование, адаптивное обучение.

KIRISH

Hozirgi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida ta'limning mazmuni, shakli va metodlari tubdan yangilanmoqda. Ayniqsa, ta'lim jarayonini individuallashtirish, o'quvchi va talabalarning ehtiyoj va imkoniyatlariga moslashtirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda.

An'anaviy ta'lim tizimi uzoq yillar mobaynida bitta standart asosida tashkil etilgan bo'lib, bunda barcha o'quvchilar uchun bir xil o'quv materiallari va metodlar qo'llanilgan. Biroq zamonaviy pedagogika va psixologiya tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar o'rtasida bilim darajasi, o'zlashtirish tezligi, qiziqishlari va kognitiv xususiyatlari jihatidan sezilarli farqlar mavjud. Bu esa individual yondashuvni ta'minlay oladigan yangi texnologik yechimlarga ehtiyojni yuzaga keltiradi.

Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, adaptiv texnologiyalar zamonaviy ta'lim tizimining eng muhim innovatsion yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Adaptiv texnologiyalar – o'quv jarayonini talabaning individual xususiyatlari, bilim darajasi, o'rganish tezligi va qiziqishlariga moslashtiruvchi zamonaviy raqamli tizimlardir ^[1].

Ular o'quvchi va talabalarning bilim darajasini doimiy ravishda monitoring qilib, ularga mos o'quv materiallari va topshiriqlarni taqdim etadi.

So'nggi yillarda adaptiv texnologiyalarni ta'lim tizimida qo'llash bo'yicha ko'plab xalqaro tadqiqotlar olib borilmoqda. Natijalar shuni ko'rsatadiki, adaptiv texnologiyalar o'quv jarayonini optimallashtiradi, individual yondashuvni mustahkamlaydi va o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi ^[2]. Ayniqsa, masofaviy ta'limning tatbiq etilishi adaptiv texnologiyalarga bo'lgan ehtiyojni yanada oshiradi.

Bundan tashqari, adaptiv texnologiyalar ta'lim jarayonini avtomatlashtirish, o'qituvchilarning ish yuklamasini kamaytirish va o'quv jarayonini samarali boshqarish imkonini beradi. Shu bilan bir qatorda, learning analytics va big data texnologiyalari yordamida o'quvchilarning rivojlanish dinamikasini chuqur tahlil qilish imkoniyati paydo bo'ladi.

Mazkur maqolaning maqsadi adaptiv texnologiyalar tushunchasini ilmiy asosda yoritish, ularning ta'lim tizimidagi qo'llanilish mexanizmlarini tahlil qilish va samaradorligini baholashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Adaptiv texnologiyalar zamonaviy ta'lim tizimining muhim innovatsion yo'nalishlaridan biri sifatida ko'plab ilmiy tadqiqotlarda yoritilgan. Xususan, L. Johnson, S. Becker, V. Estrada, A. Freeman tomonidan tayyorlangan The NMC Horizon Report: 2019 Higher Education Edition tadqiqotida oliy ta'limda raqamli texnologiyalar, jumladan adaptiv o'qitish tizimlarining rivojlanish istiqbollari tahlil qilinadi. Mualliflar ta'lim jarayonida individual yondashuvni kuchaytirishda adaptiv tizimlarning ahamiyatini alohida ta'kidlaydi hamda ularning ta'lim samaradorligini oshirishdagi rolini ilmiy asoslaydi.

O'zbekistonlik tadqiqotchilar orasida D. Qo'chqorova hamda Z. Muxtorova, N. Sodikova ishlarida adaptiv texnologiyalarning nazariy asoslari va amaliy qo'llanilishi yoritilgan. D. Qo'chqorova raqamli ta'lim tizimida adaptiv texnologiyalarning rivojlanish bosqichlarini tahlil qilib, ularning ta'lim jarayonini individuallashtirishdagi ahamiyatini ko'rsatadi. Z. Muxtorova va N. Sodikova esa sun'iy intellekt asosidagi adaptiv tizimlarning o'quvchilarning bilim darajasini aniqlash va mos kontent taqdim etishdagi imkoniyatlarini ochib beradi. Ushbu tadqiqotlar milliy ta'lim tizimida adaptiv texnologiyalarni joriy etishning ilmiy-metodik asoslarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xalqaro ilmiy izlanishlarda ham adaptiv o'qitish texnologiyalarining samaradorligi keng o'rganilgan. R. Isayeva, N. Karasartova va hammualliflar adaptiv platformalar va zamonaviy kompyuter texnologiyalarining o'quv natijalariga ijobiy ta'sirini asoslab beradi. N. Kerimbayev, K. Adamova, R. Shadiev tomonidan olib borilgan tizimli adabiyotlar tahlilida esa intellektual ta'lim texnologiyalari individual o'rganishda muhim vosita sifatida baholanadi. Shuningdek, Adaptive Learning Mechanisms for Learning Management Systems nomli tadqiqotda adaptiv tizimlarning o'quv boshqaruv platformalarida qo'llanilish mexanizmlari va ularning amaliy afzalliklari keng yoritilgan. Ushbu ilmiy ishlar adaptiv texnologiyalarning ta'lim sifatini oshirishdagi strategik ahamiyatini tasdiqlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqola aralash metodologiya asosida olib borildi va ta'limda kompyuter texnologiyalarining integratsiyasi hamda ta'sirini o'rganishga qaratildi. Bu uslub onlayn platformalarning sifat tahlili bilan ularning xususiyatlari va natijalarini o'z ichiga oldi.

Ma'lumotlarni yig'ish jarayoni mashhur ta'lim platformalarini, jumladan, Coursera, Khan Academy, edX va MIT OpenCourseWare (OCW) kabi platformalarni tahlil qilish bilan boshlandi. Ushbu platformalar ularning foydalanuvchi statistikasi va global ta'lim sohasidagi e'tirofi asosida tanlandi.

Shuningdek, talabning rivojlanishini kuzatish uchun ishlatiladigan analitik vositalar haqida ma'lumotlar ham kiritildi. Platformalarning talabalar va o'qituvchilarga fikr-mulohaza taqdim etish usullari ham o'rganildi, bu esa o'quv natijalariga ta'sirini baholash imkonini berdi.

Tahlil sifat va miqdoriy metodlarning kombinatsiyasini o'z ichiga oldi, bu mavzuni kompleks va to'liq o'rganish imkonini berdi. Tahlil yordamida videolar va animatsiyalar kabi multimedia materiallarining tushunishni oshirish va mavhum tushunchalarni o'rganishga qaratilgan samaradorligi baholandi. Tahlil ta'lim texnologiyalari bo'yicha mavjud me'yoriy ramkalar asosida olib borildi, bu resurslarning turli pedagogik maqsadlar, jumladan, tushunishni oshirish va turli o'quv uslublarini qamrab olish nuqtai nazaridan tizimli baholanishini ta'minladi.

Bundan tashqari, tadqiqot talaba ma'lumotlarini tahlil qilib, shaxsiy o'quv yo'llarini yaratish uchun mashinali o'qitish va sun'iy intellekt algoritmlaridan foydalanuvchi adaptiv ta'lim platformalarini ham o'rganishga yo'naltirildi. Ushbu platformalar talabning individual ehtiyojlariga mos ravishda o'qish sur'ati va mazmunini moslashtirish, real vaqt rejimida fikr-mulohaza berish va yaxshilash sohasini tavsiya qilish qobiliyati bo'yicha ko'rib chiqildi.

Ushbu texnologiyalar virtual muhitda amaliy o'rganishni amalga oshirish imkoniyatini oshirish qobiliyatiga ega. Shu bilan birga, ularni joriy etish bir qator muammolarni keltirib chiqaradi, jumladan, dasturiy va apparat talablarini hisobga olish hamda ta'lim muassasasining tayyorgarlik darajasi.



Platformalarni baholash uchun ishlatilgan vositalar va ko'rsatkichlar soha bo'yicha mavjud qo'llanmalar asosida moslashtirildi, bu esa natijalar takrorlanuvchi va ilmiy jihatdan ishonchli bo'lishini ta'minladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Onlayn platformalar orqali o'quv materiallari va resurslarga kengroq kirish imkoniyati ta'lim olishni tubdan o'zgartirmoqda, talabalarga qulay vaqtda va qulay shaklda o'rganish imkoniyatini taqdim etadi. Ushbu platformalar ta'limda muhim rol o'ynaydi, ular matnli resurslar, video ma'ruzalar, interaktiv topshiriqlar va amaliy mashqlar kabi keng doiradagi o'quv materiallarini taqdim etadi.

Coursera, Khan Academy va edX kabi platformalar resurslarini doimiy yangilab boradi, shuningdek, talabalarga turli sohalardagi eng so'nggi rivojlanishlar va tendensiyalar bilan tanishish imkonini beradi.

Coursera dunyo bo'ylab yetakchi universitetlar va tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan kurslari bilan ajralib turadi. Platformada bepul va pullik kurslar, shuningdek, maxsus dasturlar va sertifikatlar mavjud. Bu talabalar uchun ish bozorida talab qilinadigan malaka va ko'nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi. Coursera universitetlar va korporativ hamkorlar bilan birga eng dolzarb mavzular bo'yicha kurslar taklif etadi: texnologiya, biznes, gumanitar va ijtimoiy fanlardan tortib. 2024-yil holatiga ko'ra, platformada 5000 dan ortiq kurs, sertifikat dasturlari va ixtisoslashuvlar mavjud, kurslarni yakunlash darajasi taxminan 40 % ni tashkil etadi. Talabalar, ayniqsa, dasturlash va biznes kurslari bo'yicha ijobiy fikr bildiradi ^[3].

Khan Academy bepul ta'lim materiallarini keng doirada taqdim etishi bilan mashhur. Platforma boshlang'ich maktabdan kollej darajasigacha barcha ta'lim bosqichlarini qamrab oladi va matematika, tarix va san'at kabi fanlardan resurslar taqdim etadi. Interaktiv topshiriqlar va o'z-o'zini tekshirish testlari talabalar bilimini mustahkamlash va rivojlanishni kuzatishga yordam beradi. Shuningdek, platformada o'qituvchilar va ota-onalar uchun maxsus vositalar mavjud bo'lib, talabani rivojlanishini qo'llab-quvvatlash va kuzatish imkonini beradi. Platforma minglab darslar va interaktiv topshiriqlarni taqdim etadi, talabalarning kurslarni yakunlash darajasi turlicha bo'lsa-da, resurslarning qulayligi va interaktiv yondashuv platformaning asosiy afzalliklari sifatida qayd etiladi. Khan Academy bepul bo'lgani uchun ham yuqori baholanadi.

edX Harvard, MIT va boshqa yetakchi universitetlar va tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan kurslarni taklif etadi. Platforma bepul kurslar va pullik dasturlar, shuningdek, sertifikat va diplom variantlarini taqdim etadi. edX yuqori sifatli ta'limni taqdim etishga e'tibor qaratadi, bu xalqaro standartlarga javob beradi. Kurslar texnologiya, muhandislik, biznes, huquq va tibbiyot kabi turli sohalarni qamrab oladi, bu talabalar uchun bilimni chuqurlashtirish va professional tayyorgarlik imkonini beradi. 3000 dan ortiq kurs va dasturlarni taqdim etadi, kurslarni yakunlash darajasi taxminan 30 % ni tashkil qiladi. Talabalar materiallarning yuqori sifatini va mashhur universitetlardan sertifikat olish imkoniyatini yuqori baholaydi.

Talabalar istalgan vaqtda va istalgan joydan o'qish imkoniga ega bo'lgani uchun o'quv jarayonini o'z ehtiyojlari va jadvaliga moslashtirish imkoniyati oshadi. Bu moslashuvchanlik talabalarga materialni o'z sur'atida o'rganish imkonini beradi, shu orqali materialni chuqurroq tushunish va yaxshiroq o'quv natijalariga erishish ta'minlanadi.

Analitik vositalar orqali talabalarning qaysi fanlarda ortda qolayotganini aniqlash va ularga qo'shimcha maslahat yoki yordam berish mumkin. Ushbu hisobotlar o'quv dasturi va o'qitish usullarini talabalar ehtiyojlariga moslashtirish uchun ham ishlatiladi. Analitik vositalar, shuningdek, uzoq muddatli tendensiyalarni va talabalar muvaffaqiyatini kuzatish imkoniyatini taqdim etadi. Bu ta'lim muassasalariga turli o'qitish usullarining samaradorligini baholash, o'quv dasturidagi o'zgarishlarning talabalar natijalariga ta'sirini tahlil qilish va ta'lim jarayonini yaxshilash bo'yicha asosli qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, analitik vositalardan individual yo'naltirish va rivojlanishni kuzatish uchun foydalanish ta'lim jarayonini sezilarli darajada yaxshilaydi, uni talabalarning ehtiyojlariga moslashtiradi va shaxsiylashtiradi. Bu esa o'qishga bo'lgan motivatsiyani oshirish, o'quv natijalarini yaxshilash va samarali o'quv tajribasini yaratishga yordam beradi.

Ta'lim jarayoniga interaktiv va o'yinlashtirilgan elementlarni integratsiya qilish talabalar motivatsiyasi va ishtirokini sezilarli darajada oshiradi. Ushbu elementlar o'quv materiallari bilan yangi o'zaro aloqalarni taqdim etadi, o'quv jarayonini qiziqarli va jalb qiluvchi qiladi.

Interaktiv elementlar talabalarga bevosita o'qish jarayonida ishtirok etish imkonini beradi. Bunga interaktiv topshiriqlar, virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar va ta'limiy o'yinlar kiradi. Masalan, interaktiv topshiriqlar talabalarga bilimlarini amalda qo'llash, faol ishtirok etish va tanqidiy fikrlash orqali masalalarni hal qilish imkonini beradi. Virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar talabalar uchun xavfsiz va nazorat qilinadigan muhitda tajriba o'tkazish imkonini beradi, bu esa tushunishni va bilimni mustahkamlashni yaxshilaydi.

O'yinlashtirish esa o'quv jarayonida o'yin elementlari va mexanizmlaridan foydalanishni anglatadi. Bunga ballar, darajalar, medallar, reytinglar va boshqa o'yin elementlari kiradi, ular talabalarni faol ishtirok etishga va yutuq sari intilishga undaydi. Masalan, topshiriqlarni bajarish va ma'lum maqsadlarga erishish uchun ball va medal tizimi raqobat va mukofot elementini yaratadi, bu esa talabalar qiziqishi va motivatsiyasini sezilarli dara-

jada oshiradi. Reytinglar esa talabalar muvaffaqiyatlarini tengdoshlar bilan solishtirish imkonini berib, ishlashga va faol ishtirok etishga undaydi.

Interaktiv va o'yinlashtirilgan elementlar o'quv muhitini dinamik va qiziqarli qiladi, o'rganishni monotoniyanidan chiqaradi va talabalarning turli o'quv uslublari hamda afzalliklariga moslashtiradi. Ushbu elementlar talabalarga tezkor fikr-mulohaza olish imkoniyatini ham beradi, bu ularga xatolarini tezkor tuzatish va ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, bu elementlar jamoaviy ishlash, strategik fikrlash va muammolarni hal qilish kabi muhim ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Interaktiv topshiriqlar va o'yinlashtirilgan faoliyatlar ko'pincha hamkorlik va muvofiqlikni talab qiladi, bu esa talabalar kommunikatsiya va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Multimedia resurslaridan, jumladan, videolar va animatsiyalardan foydalanish murakkab tushunchalarni yaxshiroq tushunish va ta'lim jarayonini boyitishning samarali usuli hisoblanadi. Ushbu resurslar ma'lumotlarni vizualizatsiya qilish va namoyish etish imkonini beradi, bu esa murakkab mavzularni tushunishni osonlashtiradi va chuqurroq o'rganishga yordam beradi.

Video materiallar talabalarga dinamik va vizual shaklda ma'lumot taqdim etish imkonini beradi. Video darslar va ma'ruzalar orqali o'qituvchilar murakkab mavzularni tushuntirishi, real hayot misollaridan foydalanishi va nazariy bilimlarni amaliy qo'llashni namoyish etishi mumkin. Videolar, shuningdek, ekspert intervyulari, tarixiy yozuvlar, hujjatli filmlar va boshqa resurslarni o'z ichiga olishi mumkin, bu o'qishni yanada xilma-xil va interaktiv qiladi. Shu bilan birga, talaba nafaqat nazariyaning amalida qanday qo'llanilishini ko'radi, balki materialning konteksti va ahamiyatini yaxshiroq tushunadi.

Animatsiyalar esa murakkab yoki abstrakt tushunchalarni vizualizatsiya qilishning kuchli vositasidir. Ular murakkab g'oyalarni soddalashtirilgan va tushunarli elementlarga bo'lish, jarayonlar va hodisalarni so'z bilan tasvirlash qiyin bo'lgan holatlarda ko'rsatish imkonini beradi. Masalan, animatsiyalar orqali kimyoviy reaksiyalar, jismoniy hodisalar yoki matematik modellar ko'rsatilishi mumkin, bu esa ularni tushunishni osonlashtiradi. Interaktiv animatsiyalar talabalar material bilan o'zaro aloqada bo'lishi, parametrlarni o'zgartirishi va natijalarni kuzatishi mumkin, bu esa bilimni yaxshiroq tushunish va mustahkamlashga yordam beradi.

Multimedia resurslari, shuningdek, talabalarning turli o'quv uslublariga moslashishga yordam beradi. Ba'zi talabalar ma'lumotni vizual ravishda, rasm va videolar orqali yaxshiroq o'zlashtiradi, boshqalari esa matn asosidagi materiallarni afzal ko'radi. Multimedia resurslarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish turli ehtiyojlarni qondirishga va o'rganishni yanada samarali qilishga yordam beradi. Multimedia resurslarining ishlatilishi talabalarning ishtirokini sezilarli darajada oshiradi, vizual va interaktiv elementlar o'quv jarayonini qiziqarli va rag'batlantiruvchi qiladi. Bu esa talabalarning diqqatini ushlab turadi va o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi. Shuningdek, multimedia resurslaridan foydalanish ma'lumotni yaxshiroq eslab qolishga yordam beradi.

Kompyuter modellash va simulyatsiyalar ta'limda muhim rol o'ynaydi, talabalar uchun nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash va murakkab tizim va jarayonlarni tahlil qilishning noyob imkoniyatlarini taqdim etadi. Ushbu vositalar turli hodisalarni, jumladan, jismoniy jarayonlar, kimyoviy reaksiyalar va iqtisodiy tizimlar modellarini yaratish va o'rganish imkonini beradi. Kompyuter simulyatsiyasi talabalarga real dunyo hodisalarini virtual muhitda qayta yaratish va tahlil qilish imkonini beradi.

Bunga turli tizimlarni ifodalovchi virtual modellar yaratish kiradi: masalan, ob'ektlarning turli kuchlar ostidagi harakati, moddalar o'rtasidagi kimyoviy reaksiyalar yoki biologik jarayonlar, masalan, hujayra o'sishi va organizmlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir. Bunday modellar haqiqiy hayotda kuzatish qiyin yoki imkonsiz bo'lgan jarayonlarni vizualizatsiya qilish va o'rganish imkonini beradi.

Interaktiv modellash platformalari talabalarga parametrlarni o'zgartirish va bu o'zgarishlarning natijalarga qanday ta'sir qilishini kuzatish orqali modellar bilan faol o'zaro aloqada bo'lish imkonini beradi. Bu esa talabalar nazariy tushunchalar va prinsiplarga chuqurroq tushuncha hosil qilish, shuningdek, analitik va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Virtual modellar orqali turli ssenariy va sharoitlarda tajriba o'tkazish mumkinligi o'rganish va amaliy ko'nikmalarni oshiradi.

Kompyuter modellash va simulyatsiyalardan foydalanish tajribalar uchun xavfsiz va nazorat qilinadigan muhitni yaratadi. Talabalar salomatlikka xavf solmasdan va uskunalarni buzmasdan tadqiqot va sinovlar o'tkazishi mumkin, bu esa o'qishni yanada qulay va kam xarajatli bo'lishini ta'minlaydi. Bunday imkoniyatlar murakkab va potensial xavfli jarayonlarni o'rganish hamda bilimlarni mustahkamlash uchun takroriy tajribalarni o'tkazishga imkon beradi.

Virtual laboratoriyalar yaratish ta'lim texnologiyalarini rivojlantirishda muhim qadam bo'lib, talabalar uchun jismoniy uskunalarsiz tajriba va tadqiqotlar o'tkazish imkonini beradi. Virtual laboratoriyalar raqamli formatda turli vositalar va tajribalar bilan ishlash imkoniyatini taqdim etadi, bu esa o'qishni yanada qulay va xavfsiz qiladi.

Masalan, Quanser QNET DC Motor Control Board avtomatlashtirilgan elektr drayvlar, mekatronika va uy jihozlari sohalarida masofaviy laboratoriya yaratish uchun tanlangan. Quanser QNET DC Motor Control Board masofaviy laboratoriya dizayni real uskunalar va masofaviy kirish o'rtasidagi o'zaro aloqani o'z ichiga oladi, bu esa talabalar uchun turli joylardan tajribalarni o'tkazish va natijalarni real vaqt rejimida tahlil qilish imkonini beradi.



Bunday yondashuv mustaqil o'rganish va kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshiradi, ta'lim jarayonini yanada moslashuvchan va qulay qiladi. Shu turdagi virtual laboratoriyalar talabalar uchun elektr drayvlarni va mekatronik tizimlarni boshqarish mexanizmlarini chuqur o'rganish imkoniyatini yaratadi, bu esa amaliy ko'nikmalar va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, turli mamlakatlardan bo'lgan talabalarga ilgari ular uchun mavjud bo'lmagan sifati ta'lim olish imkoniyati yaratiladi. Masofaviy kurslar va o'quv materiallari geografik hamda ijtimoiy to'siqlarni yengib o'tishga yordam beradi, ta'limni yanada inklyuziv va demokratik qiladi.

Talabalar qulay vaqt va qulay formatda o'qish imkoniga ega bo'lishi o'quv jarayonini individual ehtiyojlarga moslashtirishni osonlashtiradi. Shaxsiylashtirilgan o'quv dasturlari va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanuvchi adaptiv platformalar talabalarning bilim darajasi hamda o'rganish uslubiga mos keladigan kontent va topshiriqlarni taqdim etadi. Bu esa talabalarning motivatsiyasini oshiradi va o'quv natijalarini yaxshilaydi.

Maqolada o'quv jarayoniga interaktiv va o'yin elementlarini integratsiya qilish talabalarning o'rganishga qiziqishini oshirishga yordam berishi ko'rsatildi. Virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar va ta'limiy o'yinlar qiziqarli muhit yaratadi, bu esa talabalarni faol ishtirok etishga undaydi hamda tanqidiy fikrlash va amaliy ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Shuningdek, videolar, animatsiyalar va boshqa multimedia resurslaridan foydalanish murakkab tushunchalarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi va o'rganishni boyitadi. Ta'lim dasturlariga kompyuter modellash va simulyatsiyalarni joriy etish talabalar uchun nazariy bilimlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini yaratadi.

O'rganishlar shuni ko'rsatdiki, adaptiv baholash va fikr-mulohaza tizimlarini joriy etish ta'lim jarayonini sezilarli darajada yaxshilaydi. Adaptiv tizimlar talabalarning rivojlanish darajasi va ehtiyojlariga qarab o'quv dasturini tezkor ravishda moslashtira oladi, bu esa o'qishni yanada samarali qiladi.

Bunday tizimlar talabalarning bilimlaridagi zaif tomonlarni avtomatik ravishda aniqlay oladi va ularni bartaraf etish uchun qo'shimcha resurslar hamda topshiriqlarni tavsiya qiladi. Shuningdek, virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalaridan foydalanish tobora ommalashmoqda, bu esa talabalarga murakkab va mavhum tushunchalarga interaktiv vizualizatsiyalar orqali chuqurroq kirib borish imkonini beradi. Ushbu texnologiyalar, ayniqsa, an'anaviy o'qitish usullari kam samarali bo'lishi mumkin bo'lgan sohalarida yangi o'quv imkoniyatlarini ochadi.

Talabalar o'rganish natijalari bo'yicha ma'lumotlarni doimiy yig'ish va tahlil qilish muammolarni o'z vaqtida aniqlash hamda ta'lim dasturlarining sifatini oshirish imkonini beradi. Talabalarni kuzatish va ta'lim texnologiyalarining samaradorligini baholash uchun analitik vositalardan foydalanish ta'lim muassasalariga dasturlarni zamonaviy talablarga va talabalar kutayotgan natijalarga moslashtirish imkonini beradi.

O'qituvchilar uchun bu texnologiyalardan foydalanish har bir talabaning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan darslarni rejalashtirish va tashkil etishni osonlashtiradi. Adaptiv tizimlar va analitik vositalardan foydalanish talabalarning faoliyatiga tezkor fikr-mulohaza berishni ta'minlaydi, bu esa o'qituvchilarga o'quvdagi bo'shliqlarni samaraliroq aniqlash va bartaraf etish imkonini beradi.

O'qituvchilar o'yin elementlari, virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalardan foydalanib, talabalar ishtiroki va yutuqlarini oshiradigan qiziqarli hamda dinamik o'quv muhitini yaratishi mumkin. Shuningdek, multimedia resurslaridan foydalanish murakkab tushunchalarni samarali tushuntirishga yordam beradi, bu esa darslarning tushunarli va jalb qiluvchi bo'lishini ta'minlaydi.

Kelajakdagi tadqiqotlar interaktiv, o'yinlashtirilgan va multimedia asosidagi o'qitishning talaba natijalari hamda kasbiy rivojlanishga uzoq muddatli ta'sirini o'rganishi lozim. Bundan tashqari, VR/AR texnologiyalari va adaptiv tizimlarning turli fanlar bo'yicha samaradorligini, ularning amaliy qo'llanilishi va uzoq muddatli natijalari nuqtai nazaridan baholash bo'yicha qo'shimcha tadqiqotlar zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. L. Johnson, S. Becker, V. Estrada, A. Freeman. The NMC Horizon Report: 2019 Higher Education Edition. Austin, TX: The New Media Consortium, 2019.
2. D. Qo'chqorova. Raqamli ta'lim tizimida adaptiv texnologiyalarning nazariy asoslari va rivojlanish bosqichlari. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17914794>
3. R. Isaeva, N. Karasartova, K. Dzunusnalieva, K. Mirzoeva, M. Mokliuk. "Enhancing learning effectiveness through adaptive learning platforms and emerging computer technologies in education". DOI: 10.22437/jiituj.v9i1.37967
4. N. Kerimbayev, K. Adamova, R. Shadiev. "Intelligent educational technologies in individual learning: a systematic literature review". Smart Learning Environments. DOI: 10.1186/s40561-024-00360-3
5. Z. Muxtorova, N. Sodikova. "Adaptiv ta'lim tizimlarida sun'iy intellektdan foydalanish". <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/44719>
6. Adaptive Learning Mechanisms for Learning Management Systems: A Scoping Review and Practical Considerations. <https://arxiv.org/abs/2512.18383>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.